TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.09.01.T.02.M RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XOJABAYEV ALISHER MAXMUDOVICH

QORAQALPOG‘ISTONDAGI XO‘JAKO‘L KONI GANCHI VA NOORGANIK XOMASHYOLARI ASOSIDA GIPSLI DEVORBOP MAHSULOT TARKIBLARINI ISHLAB CHIQISH

05.09.05- Qurilish materiallari va buyumlari
02.00.15- Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K.:691.5.914.4

Texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on Technical Sciences

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.09.01.T.02.M RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XOJABAYEV ALISHER MAXMUDOVICH

QORAQALPOG‘ISTONDAGI XO‘JAKO‘L KONI GANCHI VA NOORGANIK XOMASHYOLARI ASOSIDA GIPSLI DEVORBOP MAHSULOT TARKIBLARINI ISHLAB CHIQISH

05.09.05- Qurilish materiallari va buyumlari
02.00.15- Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4325 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyurne)), ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.taqu.edu.uz) va “ZiyoNet’’ Axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:	**Usmanov Xikmatula Lutpulayevich** texnika fanlari doktori, professor
	Kamilov Xabibilla Xamidovich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Adinayev Xidir Abdullayevich** kimyo fanlari doktori, dotsent
	Shakirov Tuyg’unjon Turg’unovich texnika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiyasi himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil «25» mart soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100094, Toshkent sh., Yunusobod tumani Yangi shahar ko‘chasi, 9a-uy. 4 bino 5 qavat. Faollar zali). Tel.: +99855 508-02-56; faks: +99855 508-02-56, e-mail: devon@taqu.uz, taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 190 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100094, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shaxar ko‘chasi 9a uy. Tel.: +99855 508-02-56; faks: +99855 508-02-56, e-mail: devon@taqu.uz, taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «11» mart kuni tarqatildi.
(2025-yil «09» dekabrdagi 61/2025 reestr bayonnomasi).

X.A. Akramov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

I.I. Siddiqov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d.,professor

N.X. Tolipov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi t.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoatining jadal rivojlanishi, energiya resurslari narxi xamda ekologik talablarning keskin ortishi sababli mahalliy xom ashyo va turli ikkilamchi resurslardan asosida tayyorlangan devorbop materiallaridan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu borada, binolarning energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarining arzonlashish, shu jumladan turar-joy va sanoat binolarining tannarxini pasaytirish imkonini beruvchi konditsion bo‘lmagan mahalliy xom ashyo va sanoat chiqindilaridan foydalanib qurilish materiallarining yangi tarkiblarini ishlab chiqish, ularni ishlab chiqarishning energiya tejamkor texnologiyalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda gips tarkibli qurilish materiallarini yangi turlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo turini tanlash, uning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, shu bilan birga xom ashyoni mahalliylashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bu borada konditsion bo‘lmagan maxalliy gil-gips aralashmalarini (ganch) boyitish, fizik-kimyyoviy, termik ishlov berish, turli mineral va organik qo‘shimchalar bilan modifikatsiyalash orqali yuqori texnologik xossalarga ega bo‘lgan qurilish materiallarining yangi tarkiblarini ishlab chiqish, ularning ekspluatatsion xossalarini boshqarish hamda ularni ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, konditsion bo‘lmagan maxalliy ganchning fizik-kimyoviy, mineralogik, texnologik xossalarini aniqlash, undan foydalangan holda ishlab chiqilgan yangi turdagi gipsli devorbop materiallarining konstruktiv, texnik va ekspluatatsion xossalarini yaxshilash, shu bilan birga energiya va resurstejamkorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning barcha xududlarida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan ishlab chiqarish va investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati rivojlantirilish kabi bir qancha ishlar amalga oshirilib, muayyan yutuqlarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida[1] qurilish materiallari hajmini 2 barobarga oshirish, noan’anaviy nometall xomashyo va ikkilamchi resurslarni jalb qilish orqali qurilish materiallari xomashyo bazasini kengaytirish, "Yashil iqtisodiyot" doirasida chiqindisiz texnologiyani ishlab chiqish va joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi «Xo‘jako‘l» konining ganchidan foydalanib mineral bog‘lovchilar va ular asosidagi devorbop qurilish materiallarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 - 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022 yil 31 avgustdagi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

PF-213-son «Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur’atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» va VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Gipsli devorbop qurilish materiallarini ishlab chiqarishda, chiqindilardan va ikkilamchi resurslardan foydalanish bo‘yicha nashr etilgan ilmiy tadqiqotlarda yetakchi xorijiy olimlar tomonidan gipsli devorbop materiallarning tarkibini ishlab chiqish bo‘yicha ishlari, natijalari, resurs va energiya tejamkor ishlab chiqarish texnologiyalari muhokama qilingan. Dunyoda gipsli bog‘lovchilar, ularni ishlab chiqarish uchun xomashyo, shuningdek, gipsli devorbop materiallarini ishlab chiqarishda sanoatning ikkilamchi resurslari va chiqindilaridan foydalanish bo‘yicha Budnikov P., Buryanov A.F., Ferronskaya A.V., Fisher H.B., Grajdankina N.S., Korovyakov V.F., Kutateladze K.S., Lukas A., Manjit Singh., Rosales J., Schidegger F., Stambulko V.I., Tkeshashvili V.G., Vasilik P.G., Voljenskiy A.V., Zorin S.P., Zubareva K.A. va boshqa yetakchi olimlar shug‘ullanganlar.

Respublikamizda ko‘p yillar davomida kompozitsion gipsli bog‘lovchilarning xossalarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli fundamental va amaliy tadqiqotlar Ataqo‘ziyev T.A., Iskandarova M.I., Axmedov M.A., Talipov N.X., Kamilov X.X., Raximov R.Z., Usmanov X.L., To‘laganov A.A., Sattorov Z.M., Jukov A.D., Asamatdinov M.O., Madraximov A.M., Sharipov F.F., Turemuratov Sh.N. kabi yetakchi olimlar va boshqa tadqiqotchilar tomonidan muvaffaqiyatli olib borilgan.

Biroq, bugungi kunda gipsli bog‘lovchilar va ular asosida gipsli devorbop materiallar ishlab chiqarish uchun yangi mavjud noan’anaviy xomashyo komponentlarini izlash, shuningdek, ularning texnologik va fizik xossalarini aniqlash bo‘yicha bir qator hal qilinmagan masalalar mavjud. Bu esa mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining byudjet ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Qurilish va texnik maqsadlardagi funksional va silikat materiallarning energiya va resurs tejovchi tarkib va olish texnologiyalarini ishlab chiqish” (2020-2023yy.) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘istondagi Xo‘jako‘l koni ganchi va noorganik xomashyolari asosida gipsli devorbop mahsulotining tarkibi va olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ganch, ko‘pchitilgan vermikulit chiqindisi, fosfogips va metallurgiya shlak xomashyolarining kimyoviy, mineralogik va texnologik xossalarini aniqlash;

metallurgiya shlaklaridan modifikatsiyalovchi qo‘shimchalarni tanlash va modifikatsiyalangan fosfogipsning fizik-mexanik va texnologik xossalarini aniqlash;

ganchdan foydalangan holda gips bog‘lovchi moddalarning tajriba kompozitsiyalarini ishlab chiqish, fizik-mexanik va texnologik xossalarini aniqlash;

modifikatsiyalangan fosfogips va ganchdan foydalangan holda kompozit gipsli bog‘lovchi materialning tajriba tarkiblarini ishlab chiqish;

gipsli devorbop materialni tayyorlashda ganch, fosfogips va ko‘pchitilgan vermikulit chiqindisidan kompleks foydalanish va ishlab chiqilgan tarkiblari eksperimental namunalarining fizik-mexanik, texnologik va ekspluatatsion xossalarini aniqlash;

gipsli devorbop materiallarining tajriba namunalarini ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o‘tkazish va ularni joriy etishdagi kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Qoraqalpog‘istonning Xo‘jako‘l koni ganchi, Tebinbuloq vermikuliti, “Ammofos-Maxam” fosfogipsi, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” va "O‘zmetkombinat" metallurgiya shlaklari va ular asosida ishlab chiqilgan gipsli devorbop materiallarining tajriba namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida ganch, fosfogips, vermikulit chiqindisi va metallurgiya shlak asosida ishlab chiqilgan gipsli devorbop materialining maqbul tarkiblari, texnologik rejim parametrlari, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik va texnologik xossalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari.

Tadqiqotlar jarayonida dissertatsiya ishida zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari va gipsli devorbop materiali texnologiyasining an’anaviy usullari, shuningdek, fizik-mexanik va texnologik xossalari va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashning standart usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xo‘jako‘l koni ganchi va modifikatsiyalovchi mineral xomashyolarning kimyoviy va mineralogik tarkiblarini hisobga olgan holda ulardan gipsli devorbop materiallarini ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

metallurgiya shlaklari bilan fosfogips tarkibini modifikatsiyalash orqali undagi suvda eruvchan PO_4^{3-} ionini neytrallashtirishga erishilgan;

Xo‘jako‘l koni ganchiga 700 ℃ da termik ishlov berib, uning tarkibidagi giltuproqni faollashtirish va modifikatsiyalovchi qo‘shimchalar (5% ohak, 3% suyuq shisha)dan foydalanish hisobiga suv ta’siriga chidamli gipsli devorbop bloklar olishga erishilgan;

ganch va modifikatsiyalovchi qo‘shimchalardan foydalangan xolda suv ta’siriga chidamli gipsli devorbop bloklar ishlab chiqarishning texnologik parametrlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

metallurgiya shlaklaridan foydalangan holda fosfogipsdan yuqori sifatli gips bog‘lovchisi olish usuli ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog‘istondagi Xo‘jako‘l koni ganchi, fosfogips, shlak va vermikulit chiqindilaridan foydalangan holda gipsli devorbop materiallarning energiya va resurs tejamkor samarali tarkiblari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot qurilmalaridan foydalanganligi, olingan natijalar, zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari, fizik-mexanik va texnologik sinovlarning amaldagi standart usullaridan foydalangan holda kompleks tadqiqotlar o‘tkazilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ishlab chiqilgan kompozitsiya asosidagi gipsli devorbop materiallarning fizik-mexanik va kimyoviy xossalari bo‘yicha olingan natijalarning tahlili, Qoraqalpog‘iston koni xomashyolari va sanoat chiqindilaridan foydalangan holda gipsli devorbop materiali olingan, uning kimyoviy, mineralogik tarkibi va texnologik xossalarini hisobga olgan holda hozirgi vaqtda mavjud ilmiy nazariyalar bilan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Qoraqalpog‘istonning noan’anaviy xomashyolari, ganch va vermikulit chiqindisi, fosfogips, metallurgiya shlaklari asosida, gipsli devorbop materialning yangi tarkibini ishlab chiqish, ularning texnologik va issiqlik izolyatsiya xossalarini aniqlash, shuningdek, sanoat korxanalar uchun ishlab chiqilgan yangi gipsli devorbop kompozitsiyalarni taklif qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘istondagi Xo‘jako‘l koni ganchi va noorganik xomashyolari asosida gipsli devorbop mahsulot tarkiblarini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ganch va modifikatsiyalovchi qo‘shimchalar asosidagi gipsli devorbop bloklarning tarkiblari "NUKUS PRESS BETON STROY" MChJda ishlab chiqarishga joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 4-dekabrdagi 03-07/01-4201-son ma’lumotnomasi). Natijada gipsli devorbop bloklarni ishlab chiqarish imkonini beradi;

ishlab chiqilgan gipsli devorbop namunalarining fizik-mexanik va texnologik xossalari QQDU KISL "Qurilish materiallari" sertifikatlangan laboratoriyasida sinovdan o‘tkazilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 4-dekabrdagi 03-07/01-4201-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘rtacha zichligi 900 kg/m^3 va siqilishdagi mustahkamligi 6.3 MPa bo‘lgan gipsli devorbop bloklar ishlab chiqarishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 7 tasi ilmiy maqola, shu jumladan SCOPUS bazasiga kiruvchi jurnallarda 1 ta, O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, hamda 8 ta ma’ruza tezislari xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmeti ifodalangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustivor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi ilmiy asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keng yoritilgan,

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Gips va gipsli xomashyolar bo‘yicha tadqiqotlarning hozirgi holati»** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning har tomonlama tahliliy sharhi keltirilgan. Ta’kidlanishicha, hozirgi kunda butun dunyoda noan’anaviy materiallar - turli ishlab chiqarish chiqindilari va ikkilamchi xomashyo resurslari asosida yuqori texnologik xossalarga ega bo‘lgan gipsli devorbop materiallar va buyumlarning yangi turlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari keng olib borilmoqda. Bu borada, noan’anaviy xomashyo komponentlaridan foydalanib olingan yangi turdagi devorbop materiallarning fizik-kimyoviy, mineralogik, texnologik xossalarini aniqlash, qurilish-texnik va ekspluatatsion xossalarini aniqlash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy va amaliy tadqiqotlarga bag‘ishlangan ushbu sohadagi tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Devorbop materiallar ishlab chiqarishda ikkilamchi resurslar va sanoat chiqindilaridan foydalanishga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlari natijalari keltirilgan. Mavjud ma’lumotlarning tanqidiy tahlilidan kelib chiqib, dissertant tomonidan olib borilayotgan tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **«Xomashyo komponentlarini fizik-kimyoviy tahlili va gipsli devorbop mahsulotlarni fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish usullari »** deb nomlangan **ikkinchi bobida** boshlang‘ich xomashyo komponentlari va ishlab chiqarish chiqindilarini tadqiq qilishning zamonaviy fizik-kimyoviy, klassik va umumqabul qilingan standart usullari, shuningdek, gipsli devor materiallarining ishlab chiqilgan tajriba namunalari tavsiflangan.

«Qoraqalpog‘istondagi Xo‘jako‘l koni ganchi va noorganik xomashyolardan foydalangan holda gipsli devorbop mahsulot tarkiblarini ishlab chiqish» deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi mavjud ganch va noorganik xomashyo resurslarining xossalari hamda istiqbolliligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.Gipsli devorbop mahsulot olishda xomashyo aralashmasini ishlab chiqish uchun asosiy komponent sifatida, Xo‘jako‘l koni ganchi va Tebinbuloq vermikulit chiqidisi, “Ammofos-Maxam” AJning fosfogipsi, OKMK va “O‘zmetkombinat” metallurgiya shlaklaridan foydalanilgan, hamda ularning kimyoviy tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

Foydalanilgan xomashyo materiallarining kimyoviy tarkiblari

Xomashyo nomi	Oksidlar miqdori, mas. %								
	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	R_2O	SO_3	P_2O_5	K.Y.
Ganch	37,02	5,19	2,61	16,16	2,40	1,10	18,22	-	16,43
Fosfogips	10,33	0,52	0,13	33,34	0,44	0,08	45,41	1,45	7,74
Vermikulit chiqindisi	46,65	5,99	8,46	18,56	15,3	1,52	0,06	-	2,43
OKMK shlaki	34,31	6,85	51,55	3,04	1,8	1,3	0,01	-	-
“O‘zmetkombinat” shlaki	20,11	7,25	28,39	34,87	8,25	0,3	0,60	-	1,36

Tadqiq etilayotgan Xo‘jako‘l koni ganchi, Tebinbuloq koni vermikulit chiqindilari va «Ammofos-Maksam» AJning fosfogips namunalarining mineralogik tarkibi rentgenofazaviy tahlil usuli yordamida aniqlangan (1-rasm).



1-Rasm. Tadqiq etilayotgan xomashyo komponentlarining rentgenogrammalari

Xo‘jako‘l koni ganchining difraktogrammasida asosiy difraksion maksimum chiziqlari d=0,740; 0,421; 0,303; 0,284; 0,266; 0,247; 0,243; 0,188 va 0,153 nm ga teng bo‘lib, ikki molekulali suvli gips minerallarga, shuningdek gilli minerallarga d= 0,763; 0,375; 0,321; va 0,330; 0,315; kvarsga minerallarga to‘g‘ri keladi. O‘rganilgan namunalarning rentgenfazali tahlili natijalar shuni ko‘rsatdiki, ularning kimyoviy va mineralogik tarkibi an'anaviy gipsli jinslarga o‘xshash bo‘lib, asosan ikki molekulali suvli gips minerallari, gilli minerallar, shuningdek, kvarsdan minerallaridan tashkil topgan. Fosfogipsning difraktogrammasida (3.5-rasm.), asosiy difraksion maksimum chiziqlari d= 0,755; 0,379; 0,370; 0,287 va 0,189 nm, ikki molekulali suvli gips minerallarga mos keladi, shuningdek, 0,334; 0,221; va 0,181, kvars minerallarga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchitilgan vermikulit chiqindisining difraktogrammasi tahlili asosiy difraksion maksimum chiziqlari d = 0,418; 0,320; 0,297; 0,293; 0,288; 0,252; 0,250; 0,214; 0,203; 0,162;0,141; 0,140 nm diopsit mineraliga tegishli va d = 1,122; 0,827; 0,702; 0,443; 0,351 sepiolitga mineraliga to‘g‘ri keladi, shuningdek d=0,332; 0,212; 0,154; 0,152; 0,182 kvarsga mineraliga tegishli.



2-Rasm. Xomashyo namunalarining DTAva TGA egri chiziqlari

a) ganch b) fosfogips

Xo‘jako‘l koni ganchi (2-rasm, *a*) va fosfogips (2-rasm, *b*) xomashyolarning differensial-termik tahlili natijalari keltirilgan bo‘lib, 120-200 ^{o}C harorat oralig‘ida ikki molikulalai suvli gipsning suvsizlanishining sezilarli ikki tomonlama endo-effektlarini ko‘rsatadi, bu esa o‘rganilayotgan namunaning vazn yo‘qotishi bilan birga keladi. 120-200 ^{o}C da yarim gidratli kalsiy sulfat hosil bo‘ladi.

Xo‘jako‘l koni ganchi (3-rasm, *a*) va fosfogips (3-rasm, *b*) namunalarining rastrli elektron mikroskop natijalari hamda ularning 3D tizimidagi tasvirlari dastlabki namunaning tuzilishida asosan ikki molekulali suvli gips minerallarining nisbatan bir xil aralashmasi, shuningdek, kam miqdorda gilli birikmalar va kvars qo‘shimchalari mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiq qilinayotgan ganch namunasida ikki molekulali $CaSO_4$ H_2O, kristallaridan tashqari, gilgipslariga xos bo‘lgan gilli birikmalarning agregatlangan hududlari mavjud. Fosfogips namunasining petrografik tahlili ko‘rinib turibdiki, fosfogips namunasida ikki molekulali suvli gips kristallaridan tashqari, kvars, parchalanmagan fosforit ($Ca_3(PO_4)_2$) va suvda eruvchan fosfor tuzlari borligi aniqlandi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish strategiyasi tadqiqotchilar oldiga turli sanoat chiqindilarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish orqali silikat qurilish materiallarining xomashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Shulardan biri bo‘lgan fosfogipsni utilizatsiya qilish masalasiga respublikamiz olimlari va dunyoning yetakchi tadqiqotchilarining ishlari bag‘ishlangan. Biroq, hozirgi vaqtda u asosan klinkerni kuydirish uchun mineralizator sifatida, tabiiy gips, shuningdek, quruq aralashmalar ishlab chiqarishda qo‘llanilmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar fosfogips tarkibidagi, salbiy ta’sir etuvchi, suvda eruvchan qoldiq P_2O_5 ni neytrallash maqsadida bir qator tajribalar o‘tkazilgan.



a **b**

3-Rasm. Xo‘jako‘l koni ganchi (a) va fosfogips (b) namunalarining elektron mikroskop rasmi va element tahlili spektri

Ushbu dissertatsiya ishida metallurgiya shlaklaridagi Fe^{+2} va Fe^{+3} inolari ta’sirida suvda eruvchan P_2O_5 qoldiqni cho‘kma xolatga o’tkazish orqali uning salbiy ta’sirini

yo‘qotishga xarakat qildik. Buning uchun fosfogipsga metallurgiya shlaklarini turli nisbatda qo‘shib uning fizik-mexanik xossalarini va salbiy ta’sir etuvchi P_2O_5 miqdorini aniqladik. Natijada (2-jadval) xatto 1-5 % shlak qo‘shilishi fosfogipsning qotish muddatini va namunaning mustahkamligiga olib kelishi aniqlandi.

2-Jadval

Fosfogipsning xossalariga OKMK shlakining ta‘siri

Namu-nalar nomi	Xomashyolarning massa ulushi, %		Qotish muddati, min. sekund		Mustahkamlik chegarasi, MPa, namunalar 3x3x3sm	Xomashyoning massa ulushi, %, PO_4^{3-}
	Fosfo-gips	Shlak OKMK	bosh.shi	tugashi		
FShO-0	100	0	60,15	180,24	2,97	1,07
FShO-1	99	1	18,05	58,40	3,70	0,71
FShO-2	98	2	8,10	39,30	4,80	0,40
FShO-3	97	3	7,00	28,00	5,10	0,34
FShO-4	96	4	6,50	26,30	5,40	0,32
FShO-5	95	5	5,10	23,55	5,90	0,30
FShO-6	90	10	4,50	22,35	6,80	0,26
FShO-7	85	15	4,20	20,15	7,42	0,18
FShO-8	80	20	3,55	18,10	9,13	0,17
FShO-9	75	25	3,00	15,00	10,49	0,14

Ko‘rinib turibdiki, fosfogipsdagi suvda eruvchan P_2O_5 ni Fe_2O_3 va FeO ionlari yordamida neytrallash kimyoviy reaksiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. P_2O_5 (fosfor angidridi) - bu suvda eriydigan shaklda fosfat ionlarini (PO_4^{3-}) hosil qila oladigan fosfor oksidi. Fe_2O_3 suvda kam eriydigan birikma bo‘lsa-da, fosfor angidrid ioni ishtirokida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan reaksiyalar uchun temir manbai bo‘lishi mumkin Reaksiya natijasi shuni ko‘rsatadiki, P_2O^{3+} ionining suvda erishi natijasida hosil bo‘lgan ortofosfat kislotasining temir oksidi bilan o‘zaro ta’siri natijasida suvda erimaydigan cho‘kma hosil bo‘ladi.

Shunday qilib, fosfogipsdagi suvda eruvchan PO_4^{3-} ni Fe^{2+} va Fe^{3+} ionlarni yordamida neytrallash nafaqat qurilish materiallari sifatini yaxshilash, balki fosfogipsni utilizatsiya qilish bilan bog‘liq ekologik muammolarni hal qilish imkonini beradigan istiqbolli usul hisoblanadi.

Ma’lumki, ganch xomashyosidan olingan buyumlari past mustahkamlik xossalariga ega. Xo‘jako‘l koni ganchining fizik-mexanik xossalarini yaxshilash uchun avval o‘tkazilgan tadqiqotlarni hisobga olgan holda, biz ganchga harxil miqdorda shlaklar bilan modifikatsiyalangan fosfogipsni qo‘shgan holda kompozitsiya tarkiblarini ganch-fosfogips (GF) tayyorladik. Ganch (GG) va modifikatsiyalangan fosfogips (MFG) asosidagi 185-200 ^oC haroratda suvsizlantirilgan gips bog‘lovchisining fizik-mexanik xossalarini tekshirish uchun bir qator kompozitsiyalar tayyorlandi va sinovdan o‘tkazildi. Standart quyuqlikdagi eksperimental ganch namunalarining egilish va siqilishdagi mustahkamlik sinovlari GOST 23789-2018 bo‘yicha 3x3x3 va 40x40x160 mm o‘lchamli namunalarda doimiy og‘irlikkacha quritilgandan so‘ng aniqlandi. (3-jadval).

Sinov natijalaridan ko‘rinib turibdiki (3-jadval), toza ganch (GG) asosidagi namunalar mos ravishda egilishga va siqilishga past mustahkamlikni ko‘rsatadi, ya’ni 1,4 va 4,1 MPa. Biroq, hatto 5% modifikatsiyalangan fosfogips qo‘shilishi

namunalarning mustahkamligini sezilarli darajada 5,2 MPa gacha oshiradi, bu G-5 markasiga to‘g‘ri keladi. MFG qo‘shimchasi miqdorini 10 va 20% gacha oshirish tajriba namunalarining mustahkamligini mos ravishda 5,9 va 6,3 MPa gacha oshiradi.

3-Jadval

Ganchning fizik-mexanik xossalariga modifikatsiyalangan fosfogipsni ta‘siri

Namu-nalar nomi	Tarkiblar, mas. %		Qotish vaqti. min.sik		Namunalarning mustahkamligi, MPa, (doimiy og‘irlikkacha quritilgan)		O‘rtacha zichlik, ρ g/sm^3
	Ganch (GG)	Modifikat-siyalangan fosfogips	Bosh-lanishi	Tuga-shi	egilish	siqilish	
GG	100	0	3,5	6,0	1,4	4,1	1,101
MFG	0	100	5,20	23,55	3,9	5,9	1,089
GF-1	95	5	4,3	19,0	2,5	5,2	1,068
GF-2	**90**	**10**	**3,4**	**17,0**	**3,8**	**5,9**	1,057
GF-3	**80**	**20**	**2,5**	**16,2**	**3,9**	**6,3**	1,055
GF-4	70	30	2,2	16,0	3,9	7,0	1,053
GF-5	60	40	2,0	15,3	4,2	9,4	1,051
GF-6	50	50	1,9	15,0	5,0	10,1	1,048

So‘nggi yillarda uy-joy majmuasi qurilishida ko‘plab tadqiqotchilarning e’tibori binolar ichida qulay sharoitlarni uzoq vaqt saqlashga qaratilgan bo‘lib, bu ularning maqbul issiqlik ximoyalovchi va devorbop materiallarning sifati bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun bu yo‘nalishda ushbu turdagi materiallar tannarxni pasaytirishi, ishlab chiqarilayotgan issiqlik ximoyalovchi materiallarning mexanik, issiqlik xossalarini yaxshilashi, shuningdek, konstruksiyaga tushadigan yukni va ekologik muammolarni kamaytirishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun vermikulit ko‘pchitish jarayonida xosil buladigan mayda chiqindidan foydalandik. Laboratoriya sinovlarini o‘tkazish uchun 180-200^{o}C haroratda termik ishlov berilgan ganch va shlak bilan modifikatsiyalangan fosfogips, ko‘pchitilgan vermikulit chiqindisi (GFVSh) asosida turli nisbatlarda tarkiblar tayyorlandi. (4-jadval).

4-Jadval

Gipsli devorbop kompozitsiyasining fizik-mexanik xossalariga 3% suyuq shishaning ta‘siri ko‘rsatkichlari

Tarkibi	Tarkibi, massa %		Fizik-mexanik xossalari		
	Ganch +mod. FG	Vermikulit chiqindisi	Mustahkam-lik, MPa	O‘rtacha zichlik, ρ, g/sm^3	Issiqlik o‘tkazuv-chanlik koeffit-sienti λ, Vt/(m·°C)
GFVSh-1	100	0	5,9	1,057	0,241
GFVSh -2	99	1	6,2	1,047	0,212
GFVSh -3	97	3	5,9	0,944	0,198
GFVSh -4	90	10	5,5	0,893	0,176
GFVSh -5	**85**	**15**	**5,2**	**0,865**	**0,167**
GFVSh -6	80	20	3,9	0,835	0,142
GFVSh -7	85	25	3,1	0,780	0,121
GFVSh -8	70	30	2,6	0,610	0,117
GFVSh -9	65	35	2,3	0,560	0,101
GFVSh -10	60	40	2,1	0,530	0,092

Vermikulit chiqindisi qo‘shimchasining miqdorini oshirish issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlarini pasaytirsa-da, sinovdan o‘tkazilgan namunalarning mustahkamlik xossalarining sezilarli darajada pasayishi ham kuzatildi. Buning uchun o‘rganilayotgan gipsli devorbop kompozitsiyasining fizik-mexanik xossalarini oshirish uchun kompozitsiyaning quruq massasidan gipsli devorbop kompozitsiyasining aralashtiruvchi suviga 1 dan 5% gacha suyuq shisha qo‘shib kompozitsiyalar tayyorlanib sinovdan o‘tkazildi (4-rasm).



4-Rasm. Gipsli devorbop kompozitsiyasining mustahkamligiga ko‘pchitilgan vermikulit chiqindisi va suyuq shishaning ta‘siri

Tajribaviy statistik modellashtirish usulida gipsli devorbop blok komponentlari bog‘liqligini matematik modeli. Tajribalarni rejalashtirishning matematik usuli yordamida berilgan markadagi gipsli devorbop bloklarni olishda foydalaniladigan materiallar miqdorini optimallashtirish amalga oshirildi.

5-jadval

Komponentlarni o‘zgartirish chegaralari

Omillar	O‘zgartirish chegaralari			O‘zgartirish intervali
	-1	0	1	
Fosfogips, X_1	5	10	15	5
Vermikulit chiqindisi, X_2	10	15	20	5
Suyuq shisha, X_3	0,5	1	1,5	0,5

Foydalanilgan materiallar. Bog‘lovchi – ganch va fosfogips; to‘ldiruvchi vermikulit chiqindisi; qo‘shimcha – suyuq shisha. Gipsli devorbop bloklarni tayyorlashning asosiy texnologik faktorlari sifatida 1 m^3 gipsli devorbop bloklarga ishlatiladigan fosfogips, kg (X_1); vermikulit chiqindisi, kg (X_2); va suyuq shisha, kg (X_3) miqdorlari belgilab olindi. Har bir tashkil etuvchilar uchun o‘zgartirish darajasi 5-jadvalda va 5-rasmda keltirilgan.

Gipsli devorbop bloklarning matematik modeli to‘liq faktorli ikkinchi darajali 3 o‘zgaruvchan ortogonal reja shaklida tayyorlab olindi. Optimallashtirish parametrlarini natijasi sifatida gipsli devorbop bloklarning mustahkamligi, MPa ($R_{сж}$) tanlab olindi.

Ahamiyatsiz koeffitsiyentlar ajratilgandan so‘ng, gipsli devor bloklarining siqilishdagi mustahkamligi formulasi 3D tizimida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$R_{сж} = 4.761 + 0.126X_1 - 0.324X_2 + 0.296X_1X_2 + 0.166X_1X_3 + 0.181X_2X_3$$



5-rasm. Komponentlarni o‘zgartirish chegaralari 3D tizimda

Past pishirilgan gipsning siqilishdagi mustahkamlik chegarasiga komponent tarkibining ta’sirini miqdoriy baholash maqsadida tajribani rejalashtirish usullari asosida matematik modellashtirish amalga oshirildi. O‘zgaruvchan omillar sifatida quyidagilar qabul qilindi: fosfogips (X_1), vermikulit chiqindisi (X_2) va suyuq shisha (X_3). Omillar kodlangan holda qo‘llanildi, bu esa regressiya koeffitsiyentlarining taqqoslanuvchanligini va statistik tahlilning to‘g‘riligini ta’minladi.

Eksperimental ma’lumotlarni qayta ishlash va statistik ahamiyatsiz koeffitsiyentlarni ajratish natijasida quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$RR_{сж} = 4.761 + 0.126XX_1 - 0.324XX_2 + 0.296XX_1XX_2 + 0.166XX_1XX_3 + 0.181XX_2XX_3,$$

Tenglamada uchta statistik jihatdan ahamiyatli juft o‘zaro ta’sirlarning mavjudligi material tuzilishining shakllanishining yaqqol sinergetik xossaini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **«Gipsli devorbop buyumlarining maqbul tarkibi, xossalari va ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o‘tkazish. Kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash»** deb nomlangan dissertatsiyaning **to‘rtinchi bobida** tarkiblarni, texnologik rejimlarni maqbullashtirish va gipsli devorbop ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish natijalari, “ganch – fosofogips – shlak” va “ganch – fosofogips – shlak – vermikulit chiqindisi” kompozitsiyalari asosida gipsli devorbop buyumlar tarkiblari va ularni olish texnologiyalari asosidagi boshlang‘ich komponentlar konsentratsiyasi va termik ishlov berish rejimlariga bog‘liq ravishda ishlab chiqilgan tarkiblarni tajriba ishlab chiqarish sinovi yo‘li bilan aprobatsiyadan o‘tkazish natijalari keltirilgan. Foydalanilgan boshlang‘ich materiallar Qoraqalpog‘istonning bemalol foydalaniladigan, arzon va istiqbolli xomashyo resurslari hisoblanadi. Laboratoriya sinovlarini o‘tkazish uchun turli hararatlarda termik ishlov berib tayyorlangan ganch tarkibiga, 10% modifikatsiyalangan fosfogips, 5% ohak, 3% suyuq shishaning suvli eritmasi asosida turli nisbatlarda tarkiblar tayyorlandi (6-jadval).

6-Jadval

Ganch xomashyosiga 120-minut davomida turli hararatlarda termik ishlov berib namunalarining mustahkamlik

Haro-rat, °C	Qotish vaqti, min		Namunalarning mustahkamligi, MPa						O‘rtacha zichlik, kg/m^3
	boshla-nishi	tugashi	7 sutka		14 sutka		28 sutka		
			egi-lish	siqi-lish	egi-lish	siqi-lish	egi-lish	siqi-lish	
600	38 min	62 min	1,4	2,6	3,1	5,9	4,7	7,5	1484
700	45 min	78 min	1,2	2,4	2,6	5,4	4,2	7,3	1486
800	51 min	83 min	1,0	2,2	2,5	5,1	4,1	7,2	1488

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki (6-jadval), 600 va 800 °C namunalariga nisbatan, 700 °C namunalarining egilishga va siqilishga mustahkamligi quyidagi natijalarni

ko‘rsatdi, 24-sutkada namunalarning egilishga mustahkamligi – 4.2 MPa va siqilishga mustahkamligi – 7.3 MPa ga yuqori mustahkamlikka ega ekanligi aniqlandi.

Gipsli devorbop blok namunalarining egilishga va siqilishga mustahkamlik sinovi GOST 23789-2018, GOST 6428-2018 va GOST 10180-2012 talablari bo‘yicha tadqiqot-sinovlari o‘tkazildi. Xo‘jako‘l koni ganchi, modifikatsiyalangan fosfogips, ko‘pchitilgan vermikulit chiqindisi va suyuq shisha suvli eritmasidan tayyorlangan gipsli devorbop blok qorishmasini 40×40×160 mm o‘lchamdagi qoliplarga quyilgan gipsli devorbop blok namunalarining egilishga va siqilishga mustahkamligini aniqlash uchun muayyan tarkiblarda tayyorlangan 3 ta standart namunalarni sinash natijasida aniqlanadi.

Keltirilgan tarkiblardan kelib chiqib, namunalar tanlab olinib, ularni fizik-mexanik xossalari o‘rganilib quyidagi 6-rasm va 7-jadvalda keltirilgan.

7-Jadval

Gipsli devorbop blok namunalarning egilishdagi va siqilishdagi mustahkamligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov natijalari

T/r	Namunalar nomi	Mustahkamligi, MPa		O‘rtacha zichlik, kg/m^3
		egilishdagi	siqilishdagi	
1	GF-3	3,9	6,3	1055
2	GFVSh-5	3,2	5,2	865
3	GFISh-2, 700 ºC	4,2	7,3	1486
4	Tabiiy gipsli blok	3,3	5,4	1100
5	**GOST 6428-2018**	**1,7-4,0**	**≥5**	**600-1500**

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, gipsli devorbop bloklar tarkibiga modifikatsiyalangan fosfogips va suyuq shisha suvli eritmasi kiritilishi namunalarning strukturaviy xossalari egilishga va siqilishga mustahkamligini oshirishga katta hissa qo‘shdi.

